

"SUYUQ JAG'-JAG' (CAPSELLA BURSA PASTORIS L) EKSTRAKTI ASOSIDA YUMSHOQ DORI SHAKLLARI (SURTMVA VA GEL) OLIISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH"

Poyonov M.M.

Alfraganus Universiteti, Toshkent shahri, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14619239>

Mahalliy o'simlik xomashyosiga asoslangan samarali dori vositalarini yaratish O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika sanoatining asosiy vazifasidir. Ushbu masalalarni hal qilish samarali dori vositalari xilma-xilligini kengaytirish va ularning aholiga yetkazib berilishini ta'minlash imkonini beradi. Suyuq jag'-jag' ekstrakti asosida qon to'xtatuvchi va yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega bo'lgan surtma va gelning tarkibi tanlab olinib, texnologiyasi ishlab chiqildi. Yara va qon oqayotgan jarohatlarni davolashda surtma va gellar faol qo'llanilmoqda, ayniqsa, ularning tarkibiga fitopreparatlarni kiritish tendensiyasi kuchaymoqda. Biologik faol moddalarning kompleksi ko'p tomonlama va bir-birini to'ldiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Bu ularni uzoq vaqt davomida va nojo'ya ta'sirlarsiz qo'llash imkoniyatini beradi. Xalq tabobatida jag'-jag' o'ti (Bursa pastoris L) qon to'xtatuvchi va yallig'lanishga qarshi vosita sifatida keng qo'llanilgan bo'lib, bu uni teri kasalliklarini davolashda qo'llashga asos bo'lgan.

Fitopreparatlar surtmasi va gelini yaratishda asosga kiritilgan komponentlarning tanlovi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ularning toksik emasligi, mikrobiologik tozalikka mosligi, fiziologik inertligi va barqarorligi gel uchun asos sifatida 6% natriy karboksimetilsellyuloza (NaKMS) tanlovini belgiladi. NaKMS adsorbsion xususiyatlarga ega bo'lib, jarohatlangan terining turli xil ajralmalarini yutadi va uning yuzasida himoya qoplama hosil qiladi. O'simlik preparatlarini asosiy faol komponentlar sifatida surtma tarkibiga kiritish nafaqat ularning terapevtik samaradorligi, balki teri va organizmning umumiy holatiga ijobiy ta'siri bilan ham izohlanadi. Suyuq jag'-jag' ekstrakti asosida surtma tarkibi ishlab chiqildi.

Asos tanlashda biz dori va yordamchi moddalarning turli kombinatsiyalardagi o'zaro mosligini diqqat bilan o'rganib chiqdik, shuningdek, ularning fizik-kimyoviy xususiyatlarini hisobga oldik. Surtma va gelning optimal tarkibini tanlashda asosiy mezonlar sifatida tashqi ko'rinish, qatlamlanishga barqarorlik, bir xililik, kolloid va termik barqarorlik, yuqori va past haroratlarda hamda suvli eritmaning pH qiymati kabi sifat ko'rsatkichlari hisobga olingan. Suyuq jag'-jag' ekstrakti surtma uchun suv – vazelin emulsiyon asosi tanlangan bo'lib, emulgator T2 kiritilgan.

Natriy karboksimetilsellyuloza (NaKMS) asosida gel tayyorlash texnologiyasi quyidagicha: NaKMS 2-6% konsentratsiyasida gel tarkibiga kiritiladi; u gidrofil asos sifatida ishlatiladi. NaKMS porselen idishga tortilib, ustidan tozalangan suv quyildi, so'ngra suyuq o'simlik ekstrakti qo'shilib, yaxshilab aralashtirildi va 30-40 daqiqa davomida shishish uchun qoldirildi. 60 daqiqadan so'ng glitserin qo'shilib, suv hammomida (50-60°C) bir xil massa hosil bo'lguncha aralashtirildi. Tayyor gel tumanli shisha idishga qopqoqli qilib joylashtirildi.

Emulsiyon asosida mayi tayyorlash texnologiyasi quyidagi bosqichlardan iborat edi: surtma asosini tayyorlash, suyuq jag'-jag' ekstraktini kiritish, gomogenizatsiya, tuzilma hosil qilish bilan qayta gomogenizatsiya, surtmani qadoqlash va o'rash.

Shunday qilib, suyuq jag'-jag' ekstrakti asosida surtma va gelning tarkibi va texnologiyasi ishlab chiqildi.